O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60230100-1,25
2021- yil "28"-avgust

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021- yil "28"-avgust

O'ZBEK TILI TARIXI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan dasturi SamDU O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet o'quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o'quv ishlari bo'yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi *O‘TTM 3009*	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 5-6	ECTS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari** 18	
1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**
	O‘zbek tili tarixi	120	60	60

2. **I. Fanning mazmuni**

“O‘zbek tili tarixi” fanini o‘qitishdan maqsad: o‘zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, yozuvlar tarixi, davrlar osha yetib kelgan qo‘yozma manbalar va ularning mavjud nashrlardagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, leksik, hamda grammatik sathlarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar va ularni yuzaga keltirgan lingvistik va ekstralingvistik omillar, shu bilan birga turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining tarixiy ildizlari, qadimgi turk davrining vujudga kelishi va ularga oid qarashlar xususida bilim berishdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari: “O‘zbek tili tarixi” fani tarkibidan o‘rin olgan “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, "O‘zbek adabiy til tarixi” va “Qadimgi turkiy til”ning vujudga kelishi hamda rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuviga oid XI-XIV asrlarda yaratilgan eski turkiy til manbalari hamda XV-XIX asrlarga taalluqli eski o‘zbek adabiy tili yodgorliklari fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi va gap qurilishi haqida bilim berish; qadimgi turkiy tilning vujudga kelishi va davrlari bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; oltoy tillar oilasi, turk va mo‘g‘ul tillarining alohida ajralib chiqishi, turkiy tillar tarixining xun davri, shuningdek, fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

(5-semestr)

«O‘zbek tili tarixi» tanlov fani tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-mavzu. O‘zbek tili tarixi fani manbalari. Grafika (2 soat)

O‘zbek tilining o‘rganilish tarixi, o‘zbek tili grammatik qurilishi taraqqiyotining ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari. O‘zbek tili tarixining davrlashtirilishi.

O‘zbek tili tarixi va boshqa fanlar - hozirgi o‘zbek tili, o‘zbek dialektologiyasi, o‘zbekiston xalqlari larixi, o‘zbek adabiyoti tarixi fanlari bilan

aloqasi.

2-mavzu. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi (2 soat)

O‘zbek tili fonetik xususiyatlari tarixini o‘rganishda “Devonu lug‘atit turk” va boshqa leksikografik manbalar hamda grammatik ocherklarning ahamiyati. Eski o‘zbek tili unlilar tizimi, uning harfiy ifodalari, unli tovushlarning tarixiy taraqqiyot va ularning yozuvda aks etishi masalalari. Undoshlar taraqqiyoti.

3-mavzu. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi.
Ot so‘z turkumi (2 soat)

Otning grammatik kategoriyalari: ko‘plik, egalik va kelishik shakllari. -lar qo‘shimchasining turli modal ma’nolari, arabcha ko‘plik, forscha ko‘plik shaklining qo‘llanishi.Egalik kategoriyasi. Egalik shaklining kishilik olmoshlari ko‘chimidan (transformatsiyasidan) paydo bo‘lganligi. Kelishik shakllari taraqqiyoti.

4-mavzu. Sifat, son so‘z turkumlari (2 soat)

Sifat. Sifatning ta’rifi. Morfologik belgilari, asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalarining morfologik-sintaktik va sintaktik usullar bilan hosil qilinishi (eski o‘zbek tiliga xos xususiyatlar ko‘rsatiladi). Son taraqqiyoti. Eski o’zbek tilida sonlarning ifodalanish usullari va shakllari.

5-mavzu. Olmosh so‘z turkumi (2 soat)

Olmosh so‘z turkumi. Olmoshning boshqa so‘z turkumlaridan farqi, uning ma’no turlari, sintaktik vazifasi. Kishilik olmoshlari, o‘zlik olmoshlari, ko‘rsatish olmoshlari, so‘roq olmoshlari, birgalik olmoshlari, belgilash olmoshlari, gumon olmoshlari, bo‘lishsizlik olmoshlari.

6-7-mavzu. Fe’l so‘z turkumi (4 soat)

Bo’lishli va bo’lishsizlik. Bu kategoriyaning til taraqqiyotining barcha davrlarida amal qilinganligi, uning sodda (affiksal) va murakkab (to‘liqsiz fe'l modal so‘zlar bilan) shakllarida namoyon bo‘lishi. Fe’l nisbatlari, ularning hosil qilinishi. Fe’lning funksional shakllari. Fe’llarda tuslanish.

8-mavzu. Ravish so‘z turkumi (2 soat)

Ravish va unng taraqqiyoti. Ravish yasalishi: morfologik, sintaktik, morfologik-sintaktik, lekisik-sintaktik usullar. Ravishlarda daraja shakli.

9-mavzu. Ko‘makchi, bog‘lovchi va
yuklamalarning tarixiy taraqqiyoti (2 soat)

Ko‘makchilar. Sof ko‘makchilar, ularning ikki guruhga ajratilishi; eski o‘zbek tilida (shu jumladan, qadimgi turkiy tilda ham) qo‘llangan ko‘makchilar, eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek tillarida aynan va qisman fonetik o‘zgarishlar

bilan qo‘llangan ko‘makchilar, ularning semantikasi haqida tavsif beriladi. Bog‘lovchilar, ularning taraqqiyoti, vazifasiga ko’ra turlari hamda qo’llanilish xususiyatlari. Eski o’zbek tilida iste’molda bo’lgan yuklamalar tuzilishi va qo’llanilish xususiyatlari.

10-mavzu. Tasviriy-ekspessiv so’zlar (2 soat)

Obrazli so’zlar. Undovlar. Vokativ so’zlar. Yozuv yodgorliklarida qo’llanilish xususiyatlari.

11-mavzu. So‘z birikmasi va gap (2 soat)

Sintaksis. So‘z birikmalari turlari. Izofa va uning ko‘rinishlari. Teng va tobe (bitishuvli, bosqaruvli, moslashuvli) birikmalar.

12-mavzu. Gap bo‘laklari (2 soat)

Gap bo‘laklari. Ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovachi va hol. Uyushiq bo‘laklar. Gap bo‘laklarining uyushish hodisasi. Gap bo‘laklarining tartibi.

13-mavzu. Gap turlari. Sodda gaplar (2 soat)

Qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tilidagi sodda gap tiplari, uning maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq va buyruq gaplar.

Sodda gap turlari. Yig‘iq gap, yoyiq gap. Gapda bosh bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra turlari.

14-mavzu. Murakkablashgan gaplar (2 soat)

Yozma manbalar tilida ajratilgan bo‘laklar, undalma, kirish so‘z, kirish birikmalar va kirish gaplarning qo‘llanishi. Kiritma va izoh iboralari, ularning o’zaro farqlanishi, mavzuiy guruhlari, tarkibiy xususiyatlari, o‘zi izohlaydigan so’zga sintaktik jihatdan bog’lanishi. Ularning qo‘shma gapga munosabati masalasi.

15-mavzu. Qo‘shma gap (2 soat)

Qo’shma gap. Qo‘shma gap turlari: bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan qo‘shma gaplar, bog’lovchisiz bog'langan qo‘shma gaplar. Qo‘shma gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari. Eski o‘zbek tilida ko‘chirma gaplarning shakllanishi. Ularning bog‘lovchili va bog‘lovchisiz turlari.

16-mavzu. Adabiy til rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog‘liqligi. Adabiy til turlari. Uslublar taraqqiyoti (2 soat)

“O‘zbek adabiy tili tarixi” predmeti, adabiy til, uning ta’rifi, me’yorlashtirilgan til ekanligi, yozma va og‘zaki shakllari, yozma adabiy til tarixini o‘rganish masalalari.

17-mavzu. O‘zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi (2 soat).

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida turkiy tillarning o‘rganilishi. Rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari.

18-mavzu. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tizimdagi tillarning o‘rni. O‘zbek tilining tarixiy ildizlari (2 soat).

O‘zbek adabiy tilining boshqa tillarga munosabati. Uning tarixiy ildizlari. O‘zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar. O‘zbek adabiy tilining boshqa turkiy adabiy tillarga fonetik, leksik va grammatik jihatidan o‘xshash va ulardan farqli xususiyatlari. O‘zbek adabiy tili va fors tili, o‘zbek adabiy tili va arab tili, O‘zbek adabiy tili va rus tili.

19-mavzu. O‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy davri (2 soat).

O‘zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til. Turk hoqonligi davridagi matnlarning adabiy normalari va ularning keyingi davrdagi taraqqiyoti. Turkiy run yozuvlari, uyg‘ur va boshqa yozuv yodgorliklari haqida umumiy ma’lumot.

20-mavzu. Eski turkiy adabiy til (2 soat).

Eski turkiy adabiy til davri. O‘zbek adabiy tili va eski turkiy til. Arab va uyg‘ur yozuvidagi manbalar, ularda adabiy me’yor masalasi. XII-XIV asrlardagi adabiy tilning taraqqiy etishida tarixiy voqealarning ahamiyati.

21-mavzu. Eski o‘zbek adabiy tili manbalari va ularning til xususiyatlari (2 soat).

Eski o‘zbek tili terminining qo‘llanish sabablari, bu davrda yaratilgan badiiy, tarixiy asarlarga qisqacha tavsif, eski o‘zbek adabiy tilining xronologik doirasi, uning tayanch dialekti haqidagi munozaralar tahlili.

22-mavzu. Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko‘targan siymo. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari (2 soat).

XV asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining taraqqiy etishidagi tarixiy sharoit. «Alisher Navoiy – o‘zbek tilining asoschisi» iborasining tushunilishi.

23-mavzu. Bobur va Muhammad Solih asarlarining til xususiyatlari (2 soat).

O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda Bobur qarashlarining ahamiyati. XVI asrda Alisher Navoiy an’anasining davom etishi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari tili. “Shayboniyxon” dostoni.

24-mavzu. XVII - asr XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiy tili (2 soat).

XVII-XIX asrlar adabiy tili. Ma’rifatparvarlik tushunchasiga izoh, adabiy til va xalq so‘zlashuv tili ta’sirining kuchayishi. Bu davrlarda yashab ijod etgan Turdi, Nishotiy, Maxmur, Gulxaniy, Abulg‘ozi Bahodirxon Munis, Ogahiy, Feruz, Mashrab asarlari tilining eng muhim xususiyatlari, uslubiy o‘zgachaliklari.

25-mavzu. Adabiy tilning takomilida lug‘at va grammatik asarlarning o‘rni (2 soat).

O‘zbek lug‘atchiligi tarixi. “Devoni lug‘at it-turk” asari ilk lug‘atchilikning noyob namunasi. Lug‘atchilik an’anasining keyingi davrlardagi taraqqiyoti. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar.

26-mavzu. Adabiy tilning XX asrdan keyingi takomili (2 soat)

20-yillar o‘zbek adabiy tili, uning grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishidagi o‘zgarishlar. Bu davrning imlo tizimi, bunda “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining tashabbuskorligi. 30-yillar adabiy tiliga tavsif. 20-30-yillar o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek, A.Avloniy kabi shoir va yozuvchilar asarlari tilining ahamiyati.

6-semestr

27-mavzu. “Qadimgi turkiy til” faniga kirish. Qadimgi turkiy obidalar, ularning topilishi, o‘qilishi (2 soat).

“Qadimgi turkiy til” fanining mazmuni. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. Qadimgi turkiy tilning davrlari, eramizgacha, eramizning I-V va VI-X asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayot. Oltoy tillari oilasi haqida tushuncha. Turkiy tillar tarixida xun davri. Qadimgi turk davrining vujudga kelishi.

28-mavzu. O‘rxun, uyg‘ur yozuvi va ularning grafik xususiyatlari (2 soat).

O‘rxun yozuvining yuzaga kelish tarixi. Epigrafik yozuv. Bu yozuvning grafik xususiyatlari. O‘rxun yozuvidagi harflarning shakllari va uning mazmuni. Yozuvning paleografik xususiyatlari. O‘rxun, Enasoy va Talas bitiklaridagi harflarning o‘xshash va farqli jihatlari. Unlilarni ifoda qiluvchi harflar, ularning nomlanishi, fonetik va fonematik xususiyatlari, yozilish tarsi. Undoshlarni ifoda qiluvchi harflar, ularning yozilish tarsi, fonetik va fonematik xususiyatlari, ularning ayrimlari “unli+undosh” tabiatiga ega bo‘lishi. Bir grafemaning ikki tovushni (tovush birikmasini) ifoda qilishi. Tinish belgilari.

29-mavzu. Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari (2 soat).

Qadimgi turkiy tilning fonetik qurilishi, unlilar tizimi. Unlilarning miqdori va sifati, ularning hozirgi o‘zbek va turkiy tillarida taraqqiy qilish xususiyatlari. Qadimgi turkiy tildagi undoshlar tizimi, ularning artikulyatsion – akustik xususiyatlari. Ayrim undoshlarning (d/dz) hozirgi turkey tillardagi taraqqiyoti. Unli va undosh fonemalarning ziddiyatli (oppozitsiyasi) qo‘llanishi.

30-mavzu. Qadimgi turkiy til leksikasi (2 soat).

Qadimgi turkiy tilning leksik tarkibi. Yodgorliklarning lug‘at tarkibi, turli sohalarga oid so‘z va terminlar, o‘z va o‘zlashgan qatlam. Kichik fonetik farqlar bilan, kuchli fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi turkiy va o‘zbek tillarida qo‘llanadigan so‘zlar. So‘z ma’nosi taraqqiyotidagi ayrim o‘ziga xosliklarga

izoh. Qadimgi turkiy va eski turkiy tildagi so‘zlarning semantik xususiyatlarini belgilashdagi qiyinchiliklar.

31-mavzu. Morfologiya. Ot, sifat, son, olmosh so‘z turkumlari (2 soat).

Qadimgi turkiy tilning morfologik tizimi haqida umumiy ma’lumot. So‘z turkumlari va ularning qadimgi turkiy tildagi xususiyatlari.

Qadimgi turkiy tilning morfologik strukturasi: so‘zlarning yasalishi, o‘zak va qo‘shimchalar. So‘z turkumlari(mustaqil va yordamchi so‘zlar). Ot, sifat, son, olmosh so‘z turkumlari.

32-mavzu. Fe’l, ravish va yordamchi so‘z turkumlari (2 soat).

Fe’l nisbatlari, ularning hosil qilinishi. Bo‘lishli, bo‘lishsizlik shakllari.

Fe’l mayllari. Fe’l zamonlari. Ravish, uning yasalishi, ravishga ko‘chish (konversiya) hodisasi.

Yordamchi so‘zlar. Undov va taqlidiy so‘zlar. Qadimgi turkiy tildagi yordamchi so‘zlar, undov va taqlidiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek va turkiy tillarida qo‘llanishi.

33-mavzu. Qadimgi turkiy til sintaksisi (2 soat).

Turkiy til sintaktik qurilishiga umumiy tavsif va bu davr sintaksisining o‘rganilishi tarixi. Qadimgi turkiy tilda so‘z birikmalari: bitishuv, boshqaruv va moslashuv munosabatlari. Turkiy izofa.

Gap, uning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, ularning qo‘llanish xususiyatlari. Sodda gap va gap bo‘laklarining qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklar. Eganing qo‘llanmasligi qonuniyati. Ega va uning qismi bilan mosligi masalasi.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

(5-semestr)

1. Unli va undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar.
2. Mustaqil so‘z turkumlariga xos jihatlar.
3. Otlarda egalik, ko’plik, kelishik kategoriyalari.
4. Olmoshning turlari.
5. Sonlarning ifodalanishi.
6. Fe’l va uning vazifaviy shakllari. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.
7. Ravishni hosil qiluvchi affikslar.
8. So‘z yasalishi. Affiksatsiya va kompozitsiya.
9. Tarixiy sintaksisga xos jihatlar.
10. So‘z birikmalari va ularning turlari.
11. Gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanishi.
12. Gap va uning turlari. Sodda gaplar va qo‘shma gaplar.
13. Turk, chig‘atoy, sart, o‘zbek atamalarining qo‘llanilish tarixi va ilmiy

asoslanishi.

14. Arab, fors-tojik va rus tillarining o‘zbek tiliga ta’siri.
15. Mahmud Koshg’ariyning turli dialektlar haqidagi qarashlari.
16. “Muhokamat-ul-lug’atayn” asarining tilshunoslikdagi o‘rni.
17. “Boburnoma”da turli sohaga oid so‘zlarning ishlatilishi.
18. XVII-XIX asrlar adabiy tiliga xalq so‘zlashuv tilining ta’siri.
19. Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlarining tili va uslubi.

(6-semestr)

20. O‘rxun-Enasoy yozuvi alifbosi, ko‘p variantli harfiy belgilar.
21. Turkiy run yozuvi manbalari tavsifi. Ularning tarqalish geografiyasi. Uyg‘ur yozuvi va uning manbalari tavsifi
22. Qadimgi turkiy tilda unli va undoshlar tizimi. Singarmonizm.
23. Qadimgi turkiy til leksikasi va so‘z yasalishi.
24. Qadimgi turkiy tilda mustaqil so‘z turkumlari. Ot, sifat, son, olmosh so‘z turkumlari.
25. Fe’ldagi bo‘lishli va bo‘lishsizlik, vazifadosh shakllar. Fe’l nisbatlari. Ravish yasalishi. Ravishning morfologik usul bilan yasalishi
26. Ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar, undovlar
27. Sintaksis. So‘z birikmasi va gap. Gap bo‘laklari, qadimgi turkiy tilda gap qurilishi tahlili.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

(5-semestr)

1. O‘zbek tilining o‘rganilishi.
2. O‘zbek tili tarixini davrlashtirishga oid turkologiyadagi qarashlar.
3. Otlarda bo‘lishsizlik shakli. Vosita kelishigi.
4. Sifat va ravishlarda belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi shakllar. Daraja formasi.
5. Fe’ldan sifat yasovchi affikslar.
6. Birgalik va gumon olmoshlari.
7. Aniqlik mayli: hozirgi (hozirgi – kelasi), o‘tgan va kelasi zamon.
8. Ravishlarda daraja formasi. Sifatdosh oboroti, ravishdosh, harakat nomi oboroti.
9. Bitishuv munosabatga kirishgan so‘zlar. Shaxsdagi moslik.
10. Izofa so‘z birikmasi turlari.
11. Uyushiq bo‘laklar. Gap bo‘laklarining tartibi.
12. Undalma va kirish so‘zlar.
13. Ko‘chirma gap.
14. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etishda teng bog‘lovchilarning roli.
15. “Devonu lug‘otit turk”dagi etnonimlar.

	16. “Qutadg‘u bilig” dagi nisbiy sifatlar. 18. “Hibatul-xaqoyiq”dagi onomastika. 19. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi arxaizmlar. 20. “Muhabbatnoma” matnidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi. 21. “Muhokamatul-lug‘atayin”dagi ma’nodosh va shakldosh so‘zlar. 22. Bobur she’riyatidagi asli turkiy so‘zlar. 23. “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar. 24. Furqat she’riyatidagi ruscha o‘zlashmalar. 25. Muqumiy asarlaridagi majoziy so‘zlar. **6-semestr** 1. Run alifbosi tavsifi: maxsus adabiyotlar ustida ishlash. 2. Run yozuvlarining kelib chiqish tarixi. 3. Turkiy run yozuvlarining turlari va tiplari. 4. Turkiy run alifbosining shakllanishi haqida farazlar. 5. Yozma manbalarda tarixiy sanalarning berilishi. 6. Uyg‘ur xoqonligi davri manbalari 7. Turkiy manbalarda sonlarning ifodalanishi 8. Turkiy manbalarda qo‘llangan sifatlarni aniqlab, izohini berish 9. Bilga xoqon bitigtoshi matnidagi sof turkiy so‘zlarni aniqlash 10. Kultegin bitigtoshi matnidagi so‘z yasovchi affikslar 11. Kulichur bitigtoshi matnidagi tub so‘zlar 12. Manbalar tilida so‘z birikmalari
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • “O‘zbek tili tarixi” fani bo‘yicha bakalavrlar o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalasi, eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklari tavsifi, eski o‘zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalari, o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma’lumotlarga hamda o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga, ko‘k turk yozuvi bitigtoshlari, qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklari, turk-budda diniy-falsafiy asarlari til xususiyatlari, qadimgi turkiy yozuvlar, ularning kelib chiqish va qo‘llanish tarixiga doir ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • tarixiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalasiga munosabat bildirish, eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklarini tavsiflash, eski o‘zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalarni tahlil qilish. O‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma’lumotlarni umumlashtirish, o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, o‘zbek adabiy tilining qardosh turkiy tillar bilan munosabatini faktik material asosida yoritish ***ko‘nikmalariga ega***

	bo‘lishi; • til tarixi masalalariga doir metodlarni, kichik matnlarni fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik tahlil qilishi, o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bilishi, qadimgi turkiy tilga oid (run yozuvidagi) til materiallarini o‘qishi, ularni fonetik, leksik, grammatik, jihatdan tahlil qilish bo‘yicha ***malaka hosil qilishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko‘rgazmali qurollar; • kompyuter; • muammoli ta’lim; • qiyosiy tahlil. • turli xil nostandart testlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 2. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982. 3. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. 4. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи, 1994. 5. Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи. 1995. 6. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи. 1995. 7. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси.-Т., 1965. 8. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1982. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 1. Абдурахманов Н. Қадимги туркий тил. Қўлланма. - Т.:Ўқитувчи, 1989. 2. Тўйчибоев Б. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. Қўлланма.- Т.:

	Ўқитувчи, 1990. 3. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Тошкент, 2006. 4. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской писменности VIII века. - Алма-Ата, 1971. 5. Ashirboyev S., Azimov I.,Rahmatov M., G`oziyev A. Eski o`bzek tili va yozuvi praktikumi. - T., 2006. 6. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно турлари. Филол. фан. д-ри … дис.- Т.,1990. 7. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Т., 1985. 8. Ҳусанов Н. XII аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри … дис. – Тошкент, 2000. **Axborot manbalari (saytlar):** 9. www. ziyonet. uz 10. www.ziyouz.com 11. www. literature.uz.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____dagi ____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: Sh. Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. D. Islamova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** A. G‘afforov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsent, filologiya fanlari nomzodi (ichki) M. Abdiyev – SamDU, O‘zbek tili va adabiyoti kefedrasi professori.